

**KASB-
HUNAR MAKTABLARIDA ADABIYOT FANIDAN AMALIY MASHG'ULOT
DARSLARINI
O'QITISHNING GURUHLI SHAKLLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH**

R.Tillayeva (NamDPI dotsenti),

Sh.Tursunova (NamDPI magistranti)

Annotatsiya. Maqolada kasb-hunar maktablarida adabiyot fanidan amaliy mashg'ulotdarslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, xususan o'qitishning guruhli shakllaridan foydalanish dars mazmunini yaxshi o'zlashtirilishiga, tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishiga, o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishiga samarali ta'sir etib, o'quvchilarning fanga oid mavzu mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishiga imkoniyat yaratishi mumkinligi tadqiqotlar asosida ochib berishga harakat qilingan.

Аннотация. В статье на основе исследований стремились выявить, что организация практических занятий по предмету «Литература» в профессиональных училищах на основе новых педагогических технологий, в частности, использования групповых форм обучения, позволяет эффективно влиять на усвоение содержания урока, создавать условия для практического применения понятий, предлагать различные формы методов обучения, создавать возможность формирования положительного отношения учащихся к предметному содержанию науки и учебному процессу.

Annotation. In the article, based on the research, the authors will reveal that the organization of practical classes on the subject "Literature" in vocational schools based on new pedagogical technologies, in particular, the use of group forms of training, allows to effectively influence the assimilation of the lesson content, create conditions for the

practical application of concepts, offer various forms of teaching methods, create the opportunity to form a positive attitude of students to the subject content of science and the educational process.

Fanlardan o'tilgan darslar asosan amaliy mashg'ulotlar asosida mustaxkamlanadi. Chunki o'quvxhi eshitgan narsasini amalda sinash mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilimni amalda qo'llash imkoniyatini, bilim darajasini, ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Shu sababdan biz ushbu maqolada ona tili fanidan amaliy mashg'ulotlarni muammoli ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda guruhli shakllarda o'qitish bo'yicha dars ishlanmasi yaratishga harakat qildik. Buning uchun «Erkin Vohidovning hayoti va ijodi» mavzusini tanlab oldik. Dastlab mavzuga doir ta'lim berish texnologiyasi modelini shakllantirdik va mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzdik (1 va 2 jadvallar). Unda mashg'ulot vaqti, shakli, rejasi va maqsadi aniq belgilab olindi. Shuningdek, ta'lim berish texnologiyasi modelida pedagogik vazifalar va o'quv faoliyati natijalari, o'qitish va o'zlashtirilgan bilimlarni baholash uslublari keltiriladi.

1-jadval

Ta'lim berish texnologiyasi modeli

<i>Mashg'ulot</i> <i>vaqti-</i> 80 minut	<i>Talabalar soni:</i> 25 nafargacha
<i>Mashg'ulot</i> <i>shakli</i>	“E.Vohidovning hayoti va ijodi”mavzusi bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
<i>Mashg'ulot</i> <i>rejasi</i>	1. E.Vohidov hayot yo'li 2.E.Vohidovning ijodga ilk qadamlari 3.E.Vohidov dostonlari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tanlangan mavzu bo'yicha bilimlarni	

mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish. O'quvchi talabalarda nazariy ma'lumotlarni amaliyotga qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish

Pedagogik vazifalar: • “E. Vohidovning hayoti va ijodi” mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish va kengaytirishga imkoniyat yaratish; • E. Vohidovning ijodga ilk qadamlari ya'ni birinchi yozgan she'ri, dastlabki chop etilgan she'riy to'plami, ularni yaratilish tarixiga oid bilimlar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish; Mavzuga tegisgli savollari bo'yicha izohlar berish va rivojlantirish jarayonini tashkil qilish.	O'quv faoliyati natijalari: • E. Vohidovning tug'ilgan vaqti, joyi, o'quvchilik va talabalik davrlari, uning she'riyatga bo'lgan qiziqishi, ijod qilishni boshlashiga turtki bo'lgan omillar, uning yozgan asarlariga oid ma'lumotlarga ega bo'ladi. Mavzu doirasidagi voqealarni tahlil qila oladi; • E. Vohidov ijodi va ijodining dastlabki davrlari, dastlabki chop etilgan she'riy to'plamlari, ularning yaratilish tarixiga oid bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish bo'yicha ko'nikmalar shakllanadi; • O'z fikrini to'g'ri yoki noto'g'riligini anglash qobiliyati, o'ziga o'zi tanqidiy qarash, ishonch, ijodiy fikrlash fazilatlari paydo bo'ladi.
O'qitish usullari	Guruhlarda ishlash, taqdimot (namoyish etish)
O'qitish shakllari	Frontal, jamoaviy, individual
O'qitish vositalari	O'quv adabiyotlari, kompyuter, videoprojektor yoki sensorli doska
O'qitish sharoiti	Axborotlashtirilgan tizimda o'qitishga

		moslashtirilgan kichik o'quv auditoriyasi
Monitoring baholash	va	Joriy nazorat: tarqatma kartochka, savol-javob, syujetli jadval.

2-jadval

Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi



Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
I bosqich <i>Mavzuga kirish</i> (10 daqiqqa)	1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, muhokama uchun savollar, ko'zlanayotgan natijalar va mashg'ulotni olib borish xususiyatlarini ma'lum qiladi. Eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib bo'lishi e'lon qilinadi. Guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiriladi (1-ilova) .	Tinglaydilar
	1.2.Talabalar bilimini jonlantirish uchun jalb qiluvchi savollar beradi: - <i>Erkin Vohidov haqida kimlar qanday ma'lumotlarga ega?</i> - <i>Erkin Vohidovning qaysi asarlarini bilasiz qaysi she'rlarini yod olgansiz ?</i>	Savollarga javob beradilar

II bosqich Asosiy qism (65 daqiq)	2.1. Talabalarni 5guruhga bo'ladi. Kartochkalar shaklida tayyorlangan o'quv topshiriqlarini va "Syujetli jadval" tarqatadi (2,3-ilovalar, na'munaviy) Topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatma beradi. Ish tartibi va reglamenti, baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tushuntiradi (4-ilova).	O'quv topshiriqlari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar
	2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi. Kuzatuvchi sifatida guruh ishini nazorat qiladi, alohida ishlarni tashkil qilish bo'yicha aniq ko'rsatmalar beradi.	Guruh a'zolari jadvallarni to'ldiradilar, ish natijalarini ifodalaydilar va taqsimot varaqalarini rasmiylashtiradilar
	2.3. Guruhlarga jadval savollarini bo'lib tashlaydi, har bir guruhga bitta savolga javob berishni taklif qiladi. Jadvalning 4 savoli bo'yicha barcha guruhlar o'zlarining javob variantlarini berishlarini so'raydi.	
	O'quv natijalarini sharhlaydi, topshiriqni bajarish jarayonidagi qilingan alohida xulosa, umumlashtirishlarga ahamiyat beradi va guruhlarini o'zaro baholashlarini tashkillashtiradi.	Taqdimotga tayorlanadilar. Berilgan savol bo'yicha guruh faollari taqdimot qiladilar va boshqa guruh a'zolari javobni to'ldiradilar. O'zaro baholaydilar.

III bosqich Yakuni y (5 daqiqqa)	Guruhlarning o'zaro baholashning yakunini chiqaradi, o'quv faoliyat natijalarini tahlil qiladi.	Tinglaydilar
---	---	--------------

1-ilova**Gruhlarda ishi tashkil etish qoidalari**

Ta'lim oluvchilar guruh a'zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur:

-  - har bi a'zo o'rtoqlari fikrini eshitishi kerak;
-  - har bir a'zo ishda faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan bo'yin tovlamasligi kerak;
-  - har bir a'zo zarurati bo'lganda yordam so'rashi kerak;
-  - har bir a'zo undan yordam so'rashganda boshqalarga yordam berishi kerak;
-  - har bir a'zoguruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi kerak;
-  - har bir a'zo o'zining rolini yaxshi tushunishi va yaxshi bajarishi kerak.

2-ilova**O'quv topshirig'i (Kartochka shaklida)**

1. Avval olingan bilimlarni qo'llab jadvallarni to'diring..
2. Savollar bo'yicha birga taqdimot qiling.

т/п.	Savollar	Javobingiz
1.	Erkin Vohidovning bolalik yillari haqida so'zlab bering?	
2.	Erkin Vohidovning doston janrida yozilgan asarlarini sanang.	
3.	Erkin Vohidov ijodida asosan qaysi mavzu yetakchilik qilgan?	
4.	Vatanga bo'lgan muhabbat mavzusi kuylangan she'rlaridan ifodali o'qing	
5.	Erkin Vohidov umrining so'ngi yillarida yozgan asari qaysi?	

3-jadval

SYUJETLI JADVAL

Kim?	Nima?	Qayerda?	Qachon?	Nima uchun?
Erkin Vohidov	“Ruhlar isyoni” dostoni	Hindistonda yozilgan	1978- 1979 yillarda yozilgan	O'quvchida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uchun

4-ilova**Ish tartibi va reglamenti**

1. guruhlarda ishlash - 40 daqiqa.
2. Taqdimot - 20 daqiqa.
3. jamoaviy muhokama va o'zaro baholash – 20 daqiqa

O'quv faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Guruhlar	Savol yoritilishining to'liqligi, aniqligi (3)	Javoblarga boshqa guruhlarning to'ldirishi (1balldan)	Bashorat varianti (1ball)	Umumiy ball (5 ball)
1				
2				
3				
4				
5				

Tadqiqotning ijtimoiy samaradorligini o'rganish maqsadida pedagogik amaliyot davrida Namangan shahar 2-sonli kasb-hunar maktabi 2-kurs "Avtomobil elektr va electron jihozlariga xizmat ko'rsatish" ta'lim yo'nalishi "17-23" va "6-23" guruhlarini tanlab oldik va amaliy mashg'ulotni jamoaviy va guruhli usulda yuqoridagi tartibda o'tkazdik. Amaliy mashg'ulot darsida guruhlardan tegishli tartibda 25 nafardan o'quvchilar ishtirok etishdi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki jamoaviy usulda o'qitilgan "17-23" guruhidagi jami 25 nafar talabadan baholash natijalariga ko'ra faqatgina 3 nafar talaba 86-100% li, 12 nafar talaba 71-85% li, 9 nafar talaba esa 56-70% li o'zlashtirish natijalari qayd etildi. 1 nafar talaba esa 55% dan kam o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'ldi. Guruhli usulda dars o'tilgan "6-23" guruhida esa jami 25 nafar talabadan 5 nafari 86-100% li, 15 nafari 71-85 % li, qolgan 5 nafari 56-70% li o'zlashtirish ko'rsatkichiga erishdilar. Guruhda o'zlashtirmagan talaba bo'lmadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

- kasb -hunar maktablarida darslarni yangi pedagogic texnologiyalar asosida tashkil qilish dars mazmunini yaxshi o'zlashtirilishiga, tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishiga, o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishiga samarali ta'sir etib, o'quvchilarning fanga oid mavzu mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

- o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib o'qitish, tarqatma materiallardan foydalanish, o'quvchilarni o'zaro fikr almashishga, pedagogik faoliyatni tanqidiy tahlil qilish va taqqoslashga o'rgatadi.

- ushbu usul asosida o'quv jarayonini tashkil etish o'quvchilarda mustaqil izlanish ko'nikmasini hosil qilish bilan birga didaktik vositalardan foydalanish, turli usullarda dars ishlanmalari yaratish ishtiyoqlarini hosil qiladi va ularda ijodiy ishlash va fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.